



## OT TOTEMI AFSONA VA TARIXDA

*Jumayeva Madina Baxtiyor qizi*

*Termiz davlat universiteti Etnografiya, Etnologiya va Antropologiya  
yo`nalishi magistranti*

**Annotatsiya;** Mazkur maqolada **ot totemining** afsona va tarixiy manbalardagi oʻrni hamda ahamiyati tahlil qilinadi. Totemizizm ibtidoiy jamiyatlarda inson va tabiat oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlikni aks ettiruvchi muhim eʼtiqod shakli boʻlib, ot obrazi koʻplab xalqlarning mifologiyasi va xalq ogʻzaki ijodida muqaddas timsol sifatida namoyon boʻlgan. Afsonalarda ot kuch, sadoqat, tezlik va himoya ramzi sifatida tasvirlansa, tarixiy manbalarda u transport vositasi, harbiy qudrat va xoʻjalik faoliyatining ajralmas qismi sifatida eʼtirof etiladi. Maqolada turkiy xalqlar, qadimgi Sharq hamda Yevropa madaniyatlarida ot totemining shakllanishi, ramziy maʼnolari va uning ijtimoiy-madaniy taraqqiyotdagi oʻrni yoritib beriladi. Tadqiqot natijalari ot totemi insoniyat dunyoqarashi va madaniy merosining muhim tarkibiy qismi ekanini koʻrsatadi.

**Kalit soʻzlar:** totemizm, ot totemi, mifologiya, afsona, xalq ogʻzaki ijodi, turkiy xalqlar, ramziy maʼno, qadimgi eʼtiqodlar, madaniy meros, tarixiy manbalar.

**Аннотация;** В данной статье анализируется роль и значение тотема лошади в легендах и исторических источниках. Тотемизм является важной формой веры, отражающей неразрывную связь между человеком и природой в первобытных обществах, и образ коня проявлялся как священный символ в мифологии и устном народном творчестве многих народов. Если в легендах конь изображается как символ силы, верности, скорости и защиты, то в исторических источниках он признается транспортным средством, неотъемлемой частью военной мощи и хозяйственной деятельности. В статье освещается формирование тотема коня у тюркских народов, древнего Востока



и европейской культуры, его символическое значение и роль в социально-культурном развитии. Результаты исследования показывают, что тотем коня является важной составляющей мировоззрения и культурного наследия человечества.

**Ключевые слова:** тотемизм, конский тотем, мифология, легенда, народное устное творчество, тюркские народы, символическое значение, древние верования, культурное наследие, исторические источники.

**Abstract;** This article analyzes the role and significance of the horse totem in legends and historical sources. Totemism is an important form of belief reflecting the inextricable link between man and nature in primitive societies, and the image of the horse appears as a sacred symbol in the mythology and folklore of many peoples. If in legends the horse is depicted as a symbol of strength, loyalty, speed, and protection, then in historical sources it is recognized as a means of transport, an integral part of military power and economic activity. The article highlights the formation of the horse totem in Turkic peoples, ancient Eastern and European cultures, its symbolic meanings, and its role in socio-cultural development. The research results show that the horse totem is an important component of humanity's worldview and cultural heritage.

**Keywords:** totemism, horse totem, mythology, legend, folklore, Turkic peoples, symbolic meaning, ancient beliefs, cultural heritage, historical sources.

Mif insoniyat tafakkurining ilk bosqichida vujudga kelgan bo'lib, qadimgi odamlarning borliqni anglashga bo'lgan dastlabki tasavvurlarini aks ettiradi. Unda olamning paydo bo'lishi, insonning kelib chiqishi, o'simlik va hayvonot dunyosining shakllanishi, osmon jismlarining vujudga kelishi hamda tabiiy hodisalarning sabab va mazmuni haqidagi qarashlar mujassamlashgan. Mifologik



tasavvurlarda afsonaviy qahramonlar, ilohlar va ma'budlar muhim o'rin egallab, ular orqali qadimgi insonning e'tiqodiy va dunyoqarashga oid tushunchalari ifodalangan.

Qadimgi odamlar o'zini tabiatdan ajralgan mavjudot sifatida anglamagan, balki borliq bilan uzviy bog'liq holda tasavvur qilgan. Shu sababli u atrof-muhitdagi voqea-hodisalarni mifologik obrazlar orqali izohlashga harakat qilgan. Miflar insonning voqelikka bo'lgan ongsiz va hissiy munosabatini aks ettiruvchi qarashlar tizimi sifatida tabiat va jamiyat hayotidagi hodisalarning mohiyatini tushuntirish vazifasini bajargan. Garchi bu tasavvurlar ko'pincha ramziy va xayoliy shaklda ifodalangan bo'lsada, ular yaratilgan davrda mutlaq haqiqat sifatida qabul qilingan va avloddan avlodga ishonch bilan yetkazilgan. Ot totemi - jahon xalqlari tarixida keng tarqalgan ilk diniy e'tiqod kurinishlaridan biri hisoblanadi. O'tmishdagi ko'plab marosim va bayramlar ana shu e'tiqod bilan bog'liq bo'lgan. Turkiy xalqlarda, jumladan, o'zbek xalqi tarixida ham ot totemi muhim o'rin tutgan va uning izlari maishiy turmushimizda bola tug'ilishidan tortib to azagacha bo'lgan marosimlarimiz tarkibida bugungi kungacha saqlanib qolgan.

Insoniyat tarixi juda qadim zamonlardan buyon ot bilan bog'liqdir. Tarixiy manbalarda qayd qilinishicha, Yevroosiyo dashtlari va Osiyoning yon bag'irlari ilk bor madaniylashgan otlar vatani hisoblangan. Mutaxassislar otlarning paydo bo'lish tarixini olti million yil avvalgi davrlar bilan bog'laydilar. Qadimgi turkiylar ilohiy mo'jiza bo'lmish otga gapiradigan, ucha oladigan aqlli mahluq sifatida qaraganlar. Turmushda muhim o'rin tutgan ot muqaddaslashtirilib, topinish (kult) darajasigacha ko'tarilgan. Darvoqe, ot nomi bilan bog'liq dastlabki qarashlar «Avesta»<sup>1</sup> dagi quyosh ilohi Mitraga bag'ishlangan «Yasht» (gimn)larda uchraydi. «Avesta» Yashtlarida ta'kidlanishicha, ot Sharqiy Eron va O'rta Osiyodagi qadimgi xalqlar, ya'ni buqa totemli Atvya qavmiga qarshi kurashuvchi Purushasp qavmining fratriysi

---

<sup>1</sup> **Avesto.** Yashtlar. Avesto tilidan tarjima. – Moskva: Sharq adabiyoti nashriyoti, 2001.



sifatida ifodalangan. Biroq, keyingi davr zardushtiylik yozuvlarida ot Axriman timsoli sifatida, ya'ni qora ot ko'rinishida tasvirlanadi. Shuningdek, Avestada Ardvissura, Anaxita bir xil zotli to'rt oq ot qo'shilgan aravada Tangri dargohiday yepira - bandalari huzuriga uchib tushgan holda tasvirlangan. Mazdoparastlik dinidagi eng buyuk ilohlardan biri Surushning aravasini xuddi Mitra kabi tuyoqlari zarrin, soyasiz oppoq durrashox to'rtga tulpor eltib yurgan. S.P. Tolstov tadqiqotiga ko'ra, massagetlarning asosiy totemlaridan biri ot chavandoz Tangri obrazida ming yillar davomida davlat ramzi bo'lib kelgan. Ahamoniylar davrida bu sulola shohlari bayrog'i ostida xizmat qilgan qo'shinning eng yaxshi otliq qo'shinlari aynan Baqtriya satrapligidan yig'ilgan. Baqtriyada esa Aleksandr Makedonskiy ham otlar tarkibini to'ldirgan. Keyinchalik Toxariston nomini olgan bu mamlakatning otlari Xitoy yilnomalarda ham ma'lum bo'lgan. Arablarning ilk yilnamasida ham bizni qiziqtirgan fakt e'tibordan chetda qolmagan. Bu jihatdan Tabariyning bir rivoyati juda xarakterli bo'lib, u xalifa Hishom ibn Abdulmalik (725-744) hukmronligi davriga oid bo'lib, u Toharistondan kelib chiqqan otlarning yuksak qadr-qimmatidan dalolat beradi. Baqtriyaning moddiy madaniyat yodgorliklarida ham, ular to'la-to'kis fan mulkiga aylanganda, bizni qiziqtirgan masala o'z ifodasini topadi. Ammo hozir ham bu sohaga taalluqli deb hisoblash mumkin bo'lgan ozgina narsa ham bu haqda to'liq ishonch bilan gapiradi. Men birinchi navbatda mashhur Amudaryo oltin buyumlar xazinasini nazarda tutyapman. Ushbu xazinadagi buyumlarda aks etgan hayvonlar tasvirlari orasida ot miqdoriy jihatdan birinchi o'rinni egallaydi. Shunisi xarakterliki, ot xilma-xil ijro texnikasi (haykaltaroshlik, kandakorlik, o'ymakorlik va boshqalar) bilan ham ifodalanadi. Bu jonivorga bunchalik e'tibor bejiz emas, albatta. Bu narsalar yaratilgan mamlakat uchun otning katta ahamiyatga ega bo'lganligidan dalolat beradi. Ot o'sha davr yunon-baqtriya tasviriy san'atida ham ma'lum o'rin egallagan. O'zbek urug'laridan biri Fargona vodiysi qipchoqtarida ot totemi bilan bog'liq to'rt ayg'ir, samanotli, qorabaytal, qulon kabi qator urug'lar mavjud bo'lgan. Ushbu urug'larning ksilib chiqishi bs- vosita ot totemi bilan bog'liq



bo‘lib, qddimda ot qipchoqlar va ularning ba’zi bir urug‘larida urug‘ ajdodi — totsmi hisoblangan. Keyinchalik esa ot totsmi o‘z ko‘rinishini o‘zgartirib, dafn maro- simlaridagi qurbonliklar bilan bog‘langan. Shuningdek, turkiy urug‘lar orasida kaltatoy urug‘ining nomi ham ot totemi bi- lan bog‘likdir. Kaltatoy so‘zi kichik jussali, kalta bo‘yinli otni anglatgan va u totem hisoblangan. Qadimda ko‘pgina xalqdarda jangchini oti, xotini, buyumlari, oziq-ovqatlari bilan birga dafn etish odati bo‘lgan. Bunday ma- rosimlar animistik tasavvurlar, inson ruhining u dunyoda ham yashashiga ishonch bilan bog‘likdir. Turkolimi Usmon Turon ham yuqoridagi fikrni tasdiqlagan holda, «Turkiy xalqlarda o‘lgandan keyin otlari va qurol-asla- halari bilan ko‘milishiga sabab, hayvonga minib jannatga ke- tishlariga ishonch bo‘lgan» — deb yozadi<sup>2</sup>. Insonni tirikligida minib yurgan oti bilan birga ko‘mish odati miloddan avvalgi VII—VIII asrlardagi skiflar davridan to milodiy VII asrigacha davom etgan. Bu marosim asosan VI asrda Turk xoqonligida keng tarqalgan edi. Ot totemiga e’tiqod izlari o‘zbeklarning yig‘i yo‘qlov maro- simlarida ham o‘z ifodasini topgan. Axborotchilarning ta’kid- lashlaricha, yaqin o‘tmishda ham o‘ziga to‘q kishi olamdan o‘tganida onasi, xotini, singlisi va bir qator qarindoshlari uning otini tuzab, kiyimlarini otustiga tashlab, atrofida aylanib, marhum amalga oshirgan ezgu ishlarini eslab yig‘laganlar. Bu marosim otga «davra solish» deb atalgan. Marosim yakunida otning dumi kssi- lib, o‘z ixtiyoriga qo‘yib yuborilgan va bu otni hech kim minmagan. Kesilgan dum esa ot egasining marhumligini anglatgan. V.V. Rad- lov qozoqlarda ham shu odat bo‘lganligi xususida yozadi. Dafn marosimlaridagi otga davra solish marosimi qadimda marhumlarni oti va unga daxldor narsalari bilan birga dafn etish marosimining

---

<sup>2</sup> Turon U. **Turkiy xalqlarning qadimgi e’tiqodlari va marosimlari.** – Toshkent: O‘qituvchi, 1998.



transformatsiyaga uchragan ko‘rinishi hisoblanadi.<sup>3</sup> O‘zbsklar orasida mukdddas jonivor — otning boshi turarjoy tomonga qaratib bog‘lansa, u o‘z nafasi bilan uyga qut-baraka be- radi, deb hisoblangan. Ot nafasi ba’zi xastaliklarga ham davodir. Ksksa yoshli axborotchilarning ta’kidlashlaricha, odatda, ot bor xonadonga ins- jinslar kirmaydi. Qolaversa, turar joylarni turli balo-qazolardan saqlash niyatida darvozaga ishlatilgan ot taqasi qoqib qo‘yilgan. Ba’zida esa momolar tomonidan chaqaloqqa ilk ko‘ylakni—chilla ko‘ylak kiydirishdan avval uni ot qozig‘iga kiy- dirib olganlar. Bunday xatgi-harakatdan ko‘zlan^an maqsad otning kuch-qudrati, chidamliligini afsungarlik yo‘li bilan chaqaloqqa o‘tkazishdan iborat bo‘lgan. Ot bilan bog‘liq muqaddas joylar, ayniqsa musulmon olamida Hazrat Ali hamda uning Duldul oti bilan bog‘liq ko‘plab qadamjoy va ziyoratgohlar ham mavjud. O‘rta Osiyo xalqlari islomning dastlabki davridan boshlab qaerda ot tuyog‘iga o‘xshash o‘nqir-cho‘nqir joylar bolsa, bu izlarni Hazrat Ali Duldulining izi sifatida anglaganlar. Duldul bilan bog‘liq joylar to‘g‘risida H. Hasanov quyidagi ma’lumotlarni ksltirgan: «Amudaryoning Xorazmga kiraverishida, suvning ikki qirg‘og‘ida Duddul o‘tlagan degan qoyatoshlar ko‘rinib turadi. Ayni shu nomli qirg‘oqlar Kofirnihon daryosida ham, O‘zbekiston bilan Tojikiston chegarasiga yaqin Xonaqo qishlog‘i yonida ham bor. Bular afsonaviy uchar Duldul sharafiga atalgan». Tojikistonning Hisor tumanidagi Jonbuloq qishlog‘ida ham, «Poyi Duldul» deb ataluvchi mozor mavjud bo‘lib, u qishloq aholisining ziyoratgohi hisoblanadi. Hatto Xitoyning g‘arbiy qismidagi Uch Turfonda hazrat Alining dulduliga bag‘ishlab mozor mavjud

Farg‘ona vodiysining har bir viloyatida Duldul bilan bog‘liq ziyoratgohlar bordesak, xato qilmaymiz. O‘sh viloyatining Aravon qishlog‘ida «Duldul ota» mozori bo‘lib, bu yerda hazrat Ali chillaxonasi ham mavjud. Rivoyaglarga ko‘ra,

<sup>3</sup> Radlov V. V. **Turkiy qabilalar xalq og‘zaki ijodi namunalari**. 1–10-jildlar. – Sankt-Peterburg: Imperator Fanlar akademiyasi, 1893–1911.



hazrat Ali tulporini shu srga bog‘lab o‘zi Dsvi Safed bilan urushgani Aravonga yaqin joydagi Chilustun g‘origa jo‘nagan ekan. Farg‘ona viloyatining So‘x tumanidagi Dul ota, Qo‘qon yaqinidagi Kishnog‘ich to‘ra mozorlarini ham Duldul bilan bog‘lashadi. Shubhasiz, turli joy nomlari va ziyoratgohlarning ot, jumladan, Duldul ot nomi bilan bog‘lanishi ham ma‘lum ma‘noda otlarni ilohiylashtirishning bir ko‘rinishidir.

Xulosa qilib aytganda, ot totemi qadimgi ajdodlarimizning mifologik tafakkuri va diniy qarashlarida muhim o‘rin tutgan. Tarixiy jarayonlar davomida ushbu e‘tiqod shakli transformatsiyaga uchrab, yangi diniy va madaniy qatlamlar bilan boyigan. Tadqiqot natijalari ot totemini turkiy xalqlar madaniy merosining muhim tarkibiy qismi sifatida baholash imkonini beradi. Demak, biz yuqoridagi fakt va dalillardan shunga amin bo‘ldikki, qadimgi ajdodlarimiz ilohiy mo‘jiza bo‘lmish otga ucha oladigan, kelajak balo-qazolarini sezuvchi, do‘st-dushmani taniydigan, aqlli mahluq sifatida qaraganlar va muqaddas totem sifatida ulug‘laganlar. Biz endi ajdodlarimizning asotiriy dunyoqarashidagi ilon totemi va kulti bilan bog‘liqayrim sahifalar, marosim va odatlarida saqlanib qolgan ko‘rinishlariga e‘tibor qaratamiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tolstov S. P. **Qadimgi Xorazm: tarixiy-arxeologik tadqiqotlar.** – Moskva–Leningrad: SSSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1948.
2. Radlov V. V. **Turkiy qabilalar xalq og‘zaki ijodi namunalari.** 1–10-jildlar. – Sankt-Peterburg: Imperator Fanlar akademiyasi, 1893–1911.
3. **Avesto.** Yashtlar. Avesto tilidan tarjima. – Moskva: Sharq adabiyoti nashriyoti, 2001.
4. Tabariy Abu Ja‘far Muhammad ibn Jarir. **Tarix ar-rusul va-l-muluk.** – Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 1987.



5. Hasanov H. **O'rta Osiyo ziyoratgohlari va muqaddas qadamjolar.** – Toshkent: Fan, 2001.
6. Turon U. **Turkiy xalqlarning qadimgi e'tiqodlari va marosimlari.** – Toshkent: O'qituvchi, 1998.
7. Karimov A. **O'zbek xalq marosimlari va urf-odatlari.** – Toshkent: Sharq, 2005.
8. Gumilyov L. N. **Qadimgi turklar.** – Moskva: Nauka, 1967